

YOSHLARDA EKOLOGIK TARBIYA VA TOLERANTLIK RIVOJLANTIRISH JAMIYAT TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI

Azimov Adxam Solijonovich

Qo'qon davlat universiteti

Tarix kafedrası katta o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yoshlarda ekologik tarbiya va tolerantlik rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omili, Mustaqillik yillarida mamlakatimizda barcha jabhalar qatorida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida to'laqonli huquqiy-me'yoriy baza yaratilganligi, chuqur va atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, ekologik tarbiya, ekologik muammolar, mafkuraviy, ekologik madaniyat, globalashuv, jamiyat, tolerantlik, umuminsoniy barqaror taraqqiyot.

Аннотация: В данной статье подробно и всесторонне рассматривается тот факт, что развитие экологического образования и толерантности среди молодежи является важным фактором развития общества, и что за годы независимости в нашей стране была создана полноценная правовая и нормативная база во всех областях экологии, охраны окружающей среды и рационального использования природных ресурсов.

Ключевые слова: Молодежь, экологическое образование, экологические проблемы, идеология, экологическая культура, глобализация, общество, толерантность, всеобщее устойчивое развитие.

Abstract: This article deeply and comprehensively discusses the fact that the development of ecological education and tolerance among youth is an important factor in the development of society, and that during the years of independence, a full-fledged legal and regulatory framework was created in our country in all areas of ecology, environmental protection and rational use of natural resources.

Keywords: Youth, ecological education, ecological problems, ideological, ecological culture, globalization, society, tolerance, universal sustainable development.

Kirish

Bugun insoniyatning tabiatga nisbatan salbiy munosabatlari oqibatlariga guvoh bo'lib turibmiz. Dunyoning bir burchida suv toshqinlari, zilzilalar ro'y berayotgan bo'lsa, boshqa joyida o'rmon yong'inlari kuzatilayapti. Bu kabi global muammolar tabiat boyliklaridan ekologik omillar hisobga olinmagan holda foydalanish natijasida o'tgan asrning ikkinchi yarmida avj ola boshlagan edi.

Ayni chog'da ekologik muammolarni hal etishda tejamkor, ekologik toza

texnologiyalarni joriy qilish, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini izchil olib borish yoki sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish borasidagi sa'y-harakatlar ularni hal etishda yetarli emasligini ko'rsatmoqda. Aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, atrof-muhitga oqilona munosabatda bo'lish, tabiat ne'matlarini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash hissini shakllantirish antropogen ta'sirlarning oldini olishda asosiy omillardandir. Bunda ekologik ta'lim-tarbiyaning ahamiyati ham nihoyatda yuqori.

Albatta, yosh avlod qalbida tabiatga nisbatan hurmat hissini shakllantirish va rivojlantirish muhim masalalardan sanaladi. Bu, o'z navbatida, pedagog kadrlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda barcha jabhalar qatorida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida to'laqonli huquqiy-me'yoriy baza yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, shuningdek, boshqa qator hujjatlar ekologik ta'limtarbiya tizimining huquqiy asosini tashkil etadi.

Ta'kidlash joizki, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish uchun barcha turdagi ta'lim muassasalarida ekologiya fanini o'qitishning majburiyligini ta'minlash mustahkamlab qo'yilgan[1].

Shubhasiz, atrof-muhit musaffoligiga erishish va ekologik muammolarning oldini olishda aholining, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik madaniyatini oshirish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda O'zbekistonda barqaror rivojlanish uchun ta'lim bo'yicha BMT o'n yilligi (2005 — 2014 yillar) doirasida izchil ishlar olib borilmoqda. 2005 yilda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi hamda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining qo'shma qaroriga asosan, "Respublikada ekologik ta'limni rivojlantirish va ekolog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish istiqbollari" dasturi va konsepsiyasi qabul qilingani ana shunday sa'yharakatlar samarasidir. Lekin ekologik xavfsizlik va atrof-muhit muhofazasiga alohida e'tibor qaratilayotgan bir paytda ekologik madaniyat tushunchasining mag'zini hamma ham birdek anglab yetayotgani yo'q. Tabiat boyliklaridan unumli foydalanish, ularni muhofaza qilish masalalarini ongli ravishda hal etish uchun oila, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab bolalarda tabiatga mehr-muhabbat ruhini shakllantirish, ekologiyaga oid bilimlarni ular shuuriga singdirish darkor. Bu kelajakda atrof-muhitni muhofaza qila oladigan va tabiatdan oqilona foydalanadigan avlodni shakllantirishning muhim shartidir[2]. Zero, o'sib kelayotgan yosh avlod tabiat haqidagi bilimlarni egallab, tevarak atrofning nozikligini, uning go'zalliklarini qalban his qila olsagina, ona-Vatanga, uning tabiatiga muhabbati oshadi.

Ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida o'quvchilar ongini hozirgi ekologik muammolar mohiyatini ochib beruvchi bilimlar bilan boyitish va shu bilimlarni ularning

amaliy faoliyati, ijtimoiy mehnati bilan mustahkamlab borish maqsadga muvofiq. Bunday mas'uliyatli vazifani hal qilish uchun o'qituvchidan shu soha bo'yicha bilimga, pedagogik mahoratga, yuksak ekologik madaniyatga ega bo'lish, shuningdek, tinimsiz izlanish, o'rganish talab qilinadi.

Bu borada o'quv muassasalarida "Ekologik markaz", "Ekologik to'garak"larni tashkil qilish, muntazam ravishda ekofestivallar yoki tanlovlar o'tkazib turish, o'quv-metodik qo'llanmalar, darsliklar, ko'rgazmali materiallarni nashr etish yaxshi samara berishi, shubhasiz.

Ekologik ta'lim-tarbiyani yuzaga keltiruvchi maskanlardan yana biri, bu - mahalla. Darhaqiqat, xalqimizda tabiatga bo'lgan ehtirom tarix kabi ko'hnadir. Shu ma'noda, azaliy qadriyatlarimizdan bo'lmish umumxalq hasharlarini o'tkazish va ularga yoshlarni ko'proq jalb etish ayni muddao.

O'zbekistonning demokratik davlat, fuqarolik jamiyat asoslarini qurish jarayonida: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa sohalarda keng masshtabda islohotlarni amalga oshirishi – ekologik tolerantlikni rivojlantirish asoslarini, motivlarini, mexanizmlarini yaratdi va barqarorlik shartlarini, taraqqiyot kafolatlarining strategik vazifalari yo'nalishlarini belgilab berdi.

Xususan, davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy rivojlanish strategiyasida: 1) milliy tarixiy qadriyatlar va milliy o'zlikni tiklash; 2) milliy davlatchilikni shakllantirish va mudofaa qobiliyatini mustahkamlash; 3) demokratik institutlarni va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish; 4) bozor iqtisodiyoti munosabatlarini qaror topdirish va mulkdorlar sinfini shakllantirish; 5) ichki va tashqi ijtimoiy-ekologik siyosat va aholi ijtimoiy faolligini o'stirish; 6) mamlakat strategik imkoniyatlari va tabiiy hom-ashyo resurslaridan oqilona foydalanish; 7) inson salohiyatini rivojlantirish va ijtimoiy ishlab chiqarish infrastrukturasini takomillashtirish; 8) keng ko'lamli o'zgarishlar va hamkorlik kafolatlarini yaratish; 9) jahon hamjamiyati bilan hamkorlikni, barqaror taraqqiyotni kafolatlovchi imkoniyatlarini yaratish strategik vazifalari kun tartibiga qo'yilgan edi[3'125].

Globalashuv jarayonining tabora shiddatli tus olishi nafaqat insoniyat imkoniyatlarini kengaytirmoqda, balki ziddiyatlarning keskinlashuvi, rivojlangan va qoloq davlatlar o'rtasidagi tafovutning o'sishiga olib kelmoqda. Buning oqibatida tinchlik va barqarorlikka raxna solayotgan, mohiyati va ko'lamiga ko'ra transmilliy xususiyatga ega turli xatti-harakatlar sodir etilmoqda"[4].

Bunday sharoitda O'zbekiston davlatining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi"da belgilangan vazifalarni samarali bajarish natijalari, uning umuman xalqaro aloqalarida, xususan ekologik munosabatlarida tolerantlik tamoyiliga amal qilishiga bog'liqligini tarixiy taraqqiyot mantig'i ko'rsatib bermoqda. Zero, XXI asr voqeligi insoniyat oldiga keskinlashayotgan global muammolarni hal etishda tolerantlik tamoyiliga asoslanishni, hayotiy zaruratga, ijtimoiy-ekologik barqaror taraqqiyot motiviga aylantirdi va ularni konkretlashtirmoqda.

Shuning uchun ham, O'zbekistonning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi"da belgilangan vazifalarni mazkur tadqiqot mavzusi nuqtai nazardan tahlil qilsak, qonun ustuvorligi ekologik-ijtimoiy faoliyatda tolerantlik hodisasini rivojlantirishning muhim mexanizmi va sharti ekanligi ma'lum bo'ladi.

Xulosa

Ekologik partiyalarning xalqaro siyosiy munosabatlarini, jamiyatning: siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy tuzimi xarakteriga, muayyan ijtimoiy qatlamlar manfaatlarga bog'lab, siyosatlashtirish va mafkuralashtirish g'aliz nazariy xulosalarga olib keladi. Chunki, milliy ekologik partiyalarning xalqaro ijtimoiy-siyosiy munosabalarini integratsiyalashtirish funksiyasi, jamiyat: ijtimoiy-siyosiy, texnik-ekologik, ma'naviy-madaniy asoslarining demokratik xarakteriga bog'liq va ularning rivojlanish darajasini ham, turli davlatlarning global ekologik siyosatga integratsiyalashuv jarayoni – insoniyatning jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy barqaror rivojlanish qonunlarini bilishi va ulardan amaliy faoliyatda foydalanish xarakterini ham belgilab turadi.

Foyalanilgan adabiyotlar:

1. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. <https://lex.uz/acts/107115>
2. Alixonov B. Ekologik ta'lim - atrof-muhit musaffoligining asosiy omili. Xalq so'zi, 10 avgust 2012 y.
3. Karimov I. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6. – T: O'zbekiston. 1998. B-125. 4.Sh.M.Mirziyoyev. Tinchlik, ma'rifat va bunyodkorlik yo'lida hamkorlik. //Xalq so'zi, 2016 yil, 19 oktyabr.
5. Musaev, Odil, et al. "Socio-philosophical interpretations of such concepts as "ethnos" and "nation" as social unit." *International Journal of Advanced Science and Technology* 29.5 (2020): 1936-1944.
6. YUSUPOV, Axrorjon. "CULTURAL, SPIRITUAL AND IDEOLOGICAL FACTORS IN INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF CITIZENS IN SOCIETY." *O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI* 1.5 (2022).
7. Kurbanovich, Yusupov Akhrorjon, and Hasanov Mukhtarjon Kakharamonjon o'g'li. "DIPLOMATIC AND TRADE-ECONOMIC RELATIONS BETWEEN THE KOKON KHAN AND RUSSIA." *Multidisciplinary Journal of Science and Technology* 3.5 (2023): 183-187.
8. Yusupov, A. K. "Rol grajdanskoy aktivnosti v demokratizatsii obshchestva." *Voprosy politologii* 10.9 (2020): 2709-2716.
9. Yusupov, Ahror Kurbanovich. "THE ROLE OF NATIONAL IDENTITY IN INCREASING THE SOCIO-POLITICAL ACTIVITY OF THE YOUTH OF UZBEKISTAN." *E-Conference Globe*. 2021.

10. Yusupov, Axrorjon, and Baxodirxan Kodirxan ugli Numanov. "KIPCHAKI FERGANSKOY DOLINY I IX UCHASTIYE V ETNICHYESKOM PROESSA." *Uchenyy XXI veka* 6-2 (2016).
11. Kurbanovich, Yusupov Akhrorjon. "The Role of National Identity in Increasing the Socio-political Activity of the Youth of Uzbekistan." *JournalNX*: 177-179.
12. Musaev, Odil, et al. "Socio-philosophical interpretations of such concepts as "ethnos" and "nation" as social unit."." *International Journal of Advanced Science and Technology* 29.5 (2020): 1936-1944.
13. Qurbonovich, Yusupov Axrorjon. "Fuqarolarning siyosiy madaniyatini oshirishning nazariy va uslubiy yondashuvlari". *Ilg'or zoologiya jurnali* 44 (2023): S2.
14. Yusupov, Axrorjon. "O'ZBEKISTONDA YOSHLAR IJTIMOY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA MADANIY VA MAFKURAVIY OMILLARNI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI." *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* 11 (2024): 81-83.
15. A Yusupov, U Ergashev - Qadimgi Misr madaniyati, dini va urf odatlari Interpretation and researches, 2023
16. Юсупов, А. К. "Роль гражданской активности в демократизации общества." *Вопросы политологии* 10.9 (2020): 2709-2716.
17. Юсупов, Ахрор. "СУЩНОСТЬ КОНЦЕПЦИИ ПОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ ГРАЖДАН." *Общественные науки в современном мире: политология, социология, философия, история*. 2020.
18. A Yusupov - Fuqarolarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirishning madaniy-ma'naviy va mafkuraviy omillari. O 'zbekiston milliy universiteti xabarlar, 2022
19. Yusupov, Axrorjon. "O'ZBEKISTONDA YOSHLAR IJTIMOY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA MADANIY VA MAFKURAVIY OMILLARNI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI." *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* 11 (2024): 81-83.
20. Yusupov, Axrorjon. "O'ZBEKISTONDA YOSHLAR IJTIMOYLAHUVIDA MILLIY-SIYOSIY MENTALITETNING O'RNI." *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* 13 (2024): 223-224.
21. Kurbanovich, Yusupov Akhrorjon, and Hasanov Mukhtarjon Khahramonjon o'g'li. "ETHNIC COMPOSITION OF THE BRONZE AGE POPULATION OF UZBEKISTAN." *International Scientific and Practical Conference of Students and Young Scientists "Sustainable Development: Problems, Analysis, Prospects"* (Poland): Vol. 3. 2023.
22. Yusupov Axrorjon Qurbonovich Философия и право YANGI O'ZBEKISTONDA JAMIYATNI DEMOKRATLASHTIRISH VA YOSHLARNING IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISH MUAMMO VA YECHIMLARI 2023 98-1016.

23. Юсупов, Ахроржон, and Баходирхан Кодирхан угли Нуманов. "Кипчаки ферганской долины и их участие в этническом процесса." Ученый XXI века 6-2 (2016).
24. Kurbanovich, Yusupov Akhrorjon. "Theoretical and methodological approaches to increase the political culture of citizens." Journal of Advanced Zoology 44.S2 (2023): 3916-3925.
9. Qurbonovich, Yusupov Axrorjon. "YOSHLAR IJTIMOYIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI." IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI 3.11 (2023): 42-46.